



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohonova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejarov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

**IQTISODIY O‘SISH VA KAPITALDAN SAMARALI FOYDALANISHNI
OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI**

**НАПРАВЛЕНИЯ ОПТИМИЗАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И
ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КАПИТАЛА**

**DIRECTIONS FOR OPTIMIZING ECONOMIC GROWTH AND EFFICIENT USE OF
CAPITAL**

Madrahimov Ulug‘bek Abduxalilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Maqola iqtisodiy o‘shishni optimallashtirish va kapitaldan samarali foydalanish yo‘nalishlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Kapital samaradorligini oshirish mexanizmlari va investitsiyalarning iqtisodiy barqaror rivojlanishga ta’siri ko‘rib chiqilgan va amaliyotga yo‘naltirilgan tavsiyalarga alohida e’tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy o‘shish, Kapital samaradorligi, Investitsiya, Iqtisodiy barqarorlik, Optimallashtirish, Moliyaviy boshqaruv, Resurslarni taqsimlash, Mehnat unumdorligi

Статья посвящена анализу направлений оптимизации экономического роста и эффективного использования капитала. Рассматриваются механизмы повышения капиталовой эффективности и влияние инвестиций на устойчивое экономическое развитие, с особым вниманием к практическим рекомендациям.

Ключевые слова: экономический рост, эффективность капитала, инвестиции, устойчивое развитие, оптимизация, финансовое управление, распределение ресурсов, производительность

The article is devoted to analyzing ways to optimize economic growth and the efficient use of capital. Mechanisms for increasing capital efficiency and the impact of investments on sustainable economic development are examined, with particular attention given to practical recommendations.

Keywords: economic growth, capital efficiency, investment, sustainable development, optimization, financial management, resource allocation, productivity.

Zamonaviy makroiqtisodiy sharoitda iqtisodiy o‘shishning tarkibiy omillarini chuqur tahlil qilish - xususan, kapital omilining ta’sirini aniqlash - ilmiy jihatdan dolzarb masalalardan biridir. Kapital omili ishlab chiqarish vositalarining samarali foydalanilishi, texnologik yangilanishlar, investitsion faollik va asosiy fondlarning qayta ishlab chiqarilishi orqali iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoatni modernizatsiyalash, infratuzilmani yangilash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan siyosat sharoitida kapital omilining miqdoriy va sifat jihatlarini chuqur o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur tadqiqot kapital samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish, investitsion resurslardan foydalanishning optimal yo‘llarini aniqlash hamda iqtisodiy o‘shish modelini takomillashtirishga qaratilgan.

Iqtisodiy o‘shish va kapital samaradorligi masalalari har bir mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kapital resurslaridan samarali foydalanish mamlakatning yalpi ichki mahsulotini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va ish bilan bandlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda oxirgi yillarda iqtisodiy islohotlar, investitsiyalar hajmining oshishi va ishlab chiqarish modernizatsiyasi orqali iqtisodiy o‘shish sur’atlari sezilarli darajada yaxshilangan. Shu bilan birga, kapitalning samarali taqsimlanishi va o‘z vaqtida

investitsiyalarning yo‘naltirilishi barqaror o‘shish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni shakllantirishga asos bo‘ladi.

Kapital samaradorligini oshirish bir necha jihatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, O‘zbekiston iqtisodiyoti sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida rivojlanmoqda va ushbu sohalarda qo‘shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish uchun kapital sarmoyalari talab etiladi. Ikkinchidan, ichki va xorijiy investitsiyalarni samarali boshqarish orqali yalpi talab va taklifni uyg‘unlashtirish, ishlab chiqarish zaxiralarini to‘g‘ri taqsimlash hamda inflyatsiya va resurslarning yetishmovchiligi kabi makroiqtisodiy muammolarni kamaytirish mumkin. Uchinchidan, kapitalning samarali ishlatilishi texnologik yangilanishlar, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi, bu esa mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta‘minlaydi.

Kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari quyidagi asosiy strategik choralarga bog‘liq bo‘lib, ular ishlab chiqarish va infratuzilma sohasiga investitsiyalarning maqsadli yo‘naltirilishi, ilmiy-texnikaviy yangilanish va modernizatsiya, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish. Shu bilan birga, investitsiyalarni baholashda ularning iqtisodiy barqarorlik va o‘shish sur‘atlariga ta‘siri, shuningdek, sektorlararo balansni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, ichki va tashqi talabni uyg‘unlashtirish hamda milliy iqtisodiy siyosatning strategik maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri kapital qo‘yilmalar yoki investitsiyalar darajasidir. Investitsiya darajasini oshirish va sur‘atini tezlashtirish uchun mamlakatda maqbul investitsiya muhitini ta‘minlash talab etiladi. Investitsiya muhitiga ta‘sir etuvchi omillar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga bo‘linadi.

Investitsiya faoliyati uchun qulay muhitni ta‘minlovchi asosiy omil siyosiy tizimdir. U investitsiya jarayonlarini amalga oshirish, ularni tartibga solish va rag‘batlantirishni ta‘minlovchi huquqiy-me‘yoriy bazani o‘z ichiga oladi. Shuningdek, siyosiy tizim iqtisodiy va ijtimoiy omillarni samarali ishlashini ham ta‘minlaydi.

Investitsiya muhitiga ta‘sir etuvchi iqtisodiy omillar zahirida asosiy kapitalning hajmi va holati yotadi. Iqtisodiy omil ijtimoiy omil bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy omil ish bilan bandlik darajasi, aholi turmush darajasini oshirish va mehnatga bo‘lgan rag‘batlantirish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Umumiy holda ijtimoiy omillar – mehnat omili sifati, uning aqliy va jismoniy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar va rag‘bat tizimidan iboratdir.

Albatta, kapital omilini harakatga keltiruvchi asosiy kuch inson kapitalidir. Mehnat malakasi investitsiyalardan samarali foydalanishda muhim o‘rin tutadi, ya‘ni uning holati bilan investitsiya darajasi o‘rtasida to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Inson kapitali iqtisodiy o‘shishning asosiy omili hisoblanadi. Uning ishlab chiqarishdagi ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, jamg‘arilgan inson kapitali unumdorligi shunchalik oshadi, o‘qishga ko‘p vaqt sarflanadi va bu ishlab chiqarishning tez o‘shishiga olib keladi.

Mehnat omili sifatini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- ishlab chiqarishga innovatsion jarayonlarni keng tatbiq etish orqali kadrlar salohiyatini oshirish;
- ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etish tizimini takomillashtirish orqali intellektual salohiyatni rag‘batlantirish;
- ishlab chiqarishda, xususan real sektor iqtisodiyotida yetakchi olimlar ishtirokida ilmiy guruhlar tashkil etish va ularning faoliyatini maqsadli shakllantirish;
- ishlab chiqarish jarayonida ustoz-shogird tizimini joriy etish va shogirdlar tarbiyasi asosida “ustoz”larni moddiy rag‘batlantirish;
- fan va ishlab chiqarish bog‘lanishini kengaytirish;
- ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish hisobiga sarflanadigan mablag‘larni soliqdan ozod qilish;

• mehnat sharoiti va rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kengaytirish hamda xarajatlar uchun soliq imtiyozlarini berish, ya’ni korxonalarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

O‘zbekistonda investitsiya muhitini takomillashtirishda xududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Ishlab chiqarish omillari ko‘p joylashgan hududlarda mehnat talab faoliyat turlarini kengaytirish, mehnat omili kam hududlarda esa kapital talab qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi muntazam ravishda oshib bormoqda. 1996–2023-yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalar jami 322,6% ga o‘sgan bo‘lsa, yaratilgan YAIM faqat 165,7% ga oshgan. Ushbu ma’lumotlar investitsiya faolligi va iqtisodiy o‘shir o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ko‘rsatadi: investitsiyaning o‘rtacha yillik o‘shir sur‘ati 11,5% ni tashkil qilgan bo‘lsa, iqtisodiy o‘shir sur‘ati 5,9% ni tashkil qilib, investitsiya hajmi YAIM o‘shiridan 1,94 marta ortda qolgan. Bu esa kapitaldan foydalanish samaradorligining pastligini va iqtisodiy o‘shirga kiritilgan har bir investitsiya birligining samaradorligi yetarli darajada emasligini bildiradi.

2024-yil misolida, mamlakat iqtisodiyoti sezilarli o‘shir ko‘rsatdi: Yalpi ichki mahsulot (YIM) real narxlarda 6,5% ga oshdi. Shu yil mobaynida asosiy kapitalga investitsiyalar 27,6% ga o‘sdii va ularning 32,8% markazlashtirilmagan investitsiyalar hissasiga to‘g‘ri keldi, ya’ni jami investitsiyalarning 90% dan ortig‘ini tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar investitsiya hajmining kengayib borayotganini va iqtisodiy o‘shirga kapitalning sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mamlakatda iqtisodiy o‘shirni ta’minlash uchun har bir 1% o‘shir uchun 1,94% investitsiya ishlatilgani, optimal sharoitda esa bu ko‘rsatkich 1,5% ga teng bo‘lishi mumkinligi, kapital omilidan foydalanish samaradorligining pastligini ko‘rsatadi.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish va kapitaldan maksimal foydalangan holda iqtisodiy o‘shirni ta’minlashda bir qancha ichki va tashqi omillar muhim rol o‘ynaydi. Ichki omillar qatoriga quyidagilar kiradi: korxonada o‘z mablag‘larini samarali boshqarishi, ishlab chiqarish quvvatlarini optimallashtirish, texnologik yangilanishlarni tatbiq etish, mehnat unumdorligini oshirish va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash. Tashqi omillar esa xorijiy investitsiyalar oqimi, global iqtisodiy sharoit, tashqi talab va moliyaviy bozorlardagi barqarorlik bilan bog‘liq.

O‘zbekiston sharoitida milliy investitsiyalar tarkibi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda korxonada o‘z mablag‘lari ulushi 32% ni tashkil etsa, ushbu ko‘rsatkichni 50% ga yetkazish orqali ichki resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o‘shirni barqarorlashtirish mumkin. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarning, xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushini oshirish iqtisodiyotga yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va qo‘shimcha kapital oqimini jalb qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, investitsiyalarning samaradorligini oshirish va kapitaldan optimal foydalanish yo‘nalishlari iqtisodiy o‘shir sur‘atlarini yaxshilash, YAIMni oshirish va ichki hamda tashqi talabni uyg‘unlashtirish orqali mamlakatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda ichki korxonada mablag‘lari va xorijiy investitsiyalarni balansli boshqarish, kapitalni samarali taqsimlash, texnologik yangilanish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish kabi omillar asosiy rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, mamlakatda makroiqtisodiy siyosatning uzoq muddatli samaradorligini ta’minlash uchun uy xo‘jaliklarida talabni oshirish choralari amalga oshirish zarur:

1. Kapital samaradorligini oshirish

• Iqtisodiy o‘shir sur‘atlarini yaxshilash uchun har bir 1% YAIM o‘shiri uchun investitsiya hajmini optimallashtirish zarur.

• Kapitalni sektorlar bo‘yicha optimallashtirilgan taqsimlash orqali ishlab chiqarish quvvatlarini maksimal darajada ishga solish va resurslarni samarali boshqarish mumkin.

2. Investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish

• Ichki korxonada mablag‘lari ulushini 32% dan 50% gacha oshirish orqali ichki resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish.

- Xorijiy investitsiyalar, xususan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushini oshirish orqali mamlakatga yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va qo‘shimcha kapital oqimini jalb qilish.

3. Texnologik modernizatsiya va innovatsiyalarni rag‘batlantirish

- Yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish innovatsiyalarini joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish va kapital samaradorligini kuchaytirish.

- Sanoat va xizmat ko‘rsatish sohaslarida ilg‘or texnologiyalarni kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish.

4. Investitsiya monitoringi va baholash tizimini kuchaytirish

- Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini muntazam monitoring qilish va olingan natijalarni YAIM o‘shirish sur‘ati bilan taqqoslash.

- Loyihalarni ilg‘or baholash metodlari (NPV, IRR, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari)ni tatbiq etish orqali resurslardan optimal foydalanish.

5. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash

- Pul-kredit va fiskal siyosatni investitsiya faolligi bilan uyg‘unlashtirish, inflyatsiya va tashqi iqtisodiy tebranishlardan keladigan salbiy ta‘sirlarni kamaytirish.

- Ichki talabni rag‘batlantiruvchi siyosatlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan investitsiya dasturlari orqali iqtisodiy o‘shirishni barqarorlashtirish.

6. Sektorlararo balansni saqlash

Sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohaslarida investitsiyalarning teng taqsimlanishi orqali yalpi ishlab chiqarish va ish bilan bandlikni oshirish.

Resurslarning ortiqcha markazlashishi yoki noto‘g‘ri yo‘naltirilishi natijasida yuzaga keladigan samaradorlik pasayishini oldini olish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Экономический рост и инновации: теория, практика и моделирование // Колл. авт. Под общий редакцией С.Чепель. –Т.: 2010. С. 24.
2. Конференция материаллари тўп. –Тошкент, 26 сентябрь 2006. 267-268 б.
3. Стрижкова Л. Факторы экономического роста // Экономист. –М.: 2004, №6. с.7-13.
4. Hanushek, Eric A and Dennis D. Kimko. 2000. “Schooling, Labor-Force Quality, and the Growth of Nations” The American Economic Review 90(5): 1184-208.
5. Инновации и экономический рост / Колл. авт. Отв. ред. Микульский К. – М.: Наука, 2002. С. 40.
6. Инновации и экономический рост / Колл. авт. Отв. ред. Микульский К. – М.: Наука, 2002. С. 46.
7. Губанов С. Новая целевая задача и условия ее решения // Экономист. –М.: 2008, №3. с.3-21.